


Tabiiy va pozitiv huquq


Reja:

- 1. Tabiiy huquq va pozitiv huquq**
- 2. Tabiiy huquqning vujudga kelishi, mohiyati, barqarorligi.**
- 3. Pozitiv huquqning o‘zgaruvchanligi.**
- 4. Legitimlik muammosi.**
- 5. Tabiiy va pozitiv huquqni qiyoslaiy jihatlari va farqi.**



Tabiiy huquq – davlat va huquq nazariyasida inson tabiatidan kelib chiquvchi va shu tufayli muayyan davlatning qonunlari orqali tan olishiga yoki tan olmasligiga bo'g'liq bo'lмаган prinsiplar, qoidalar, huquq va qadriyatlar majmuasini bildiruvchi tushuncha.


Tabiiy huquqning asosiy mazmunini huquqning ob'yektiv belgilaridan, xossalardan tashqari, fuqarolarning ijtimoiy tizimda teng huquqliligi, ularning erki va mustaqilligi va boshqa turli xil axloqiy, diniy, falsafiy va hokazo qarashlar ham tashkil etadi.



Tabiiy huquq konsepsiyasiga ko’ra, inson borlig’i, uning ruhiy va ma’naviy jihatlariga uning “tug’ma, tabiiy tengligi va erkinligiga” e’tibor bermoq lozim bo’ladi.

Tabiiy huquq konsepsiyasining mohiyatini B.S.Nersensyans quyidagicha baholaydi: “Tabiiy-huquqiy yondoshuvning jiddiy kamchiligi huquq falsafasining asosiy muammosini – huquqdagi mohiyat va hodisani farqlash va ularning nisbatini noto’g’ri talqin qilishdan iboratdir”.

Rimlik huquqshunoslar tabiiy huquqni aqmaliy jihatdan tushunishgan, uning namoyon bo’lishinin nikohda, bola tug’ilishi, tarbiyada ko’rishgan.



Tabiiy huquq konsepsiyasini XVIII asrda faransuz ma'rifatparvarlari - J.J.Russo, Sh.L.Montesk'ye, D.Didro, M.F.Volter va boshqalar rivojlantirgan. Ushbu konsepsiya insonning tabiiy holatiga, ijtimoiy kelishuvga asoslangan va tabiiy huquqning o'zgarmasliginin taqozo qiladi. U ideal huquq sifatida namoyon bo'ladi va incon tabiatni bilan shartlangan. Falsafiy konsepsiylar ichida tabiiy huquqning harakat doirasi kengayib bormoqda, ammo uning yadrosi masalan, yashash huquqi, erkinlik huquqi, mulk huquqi o'zgarmay qolmoqda.



Tabiiy huquqning lotincha ifodasi: «jus natural». Tabiiy huquq tarafdorlari yusnaturalistlar deyiladi. Falsafada naturfaylasuflar bo’lagani kabi huquq falsafasida yusnaturalizm, ya’ni tabiiy huquq konsepsiysi mavjud bo’lib, ular o’rtasida o’xshashlik va farqlash belgilari bor. Yusnaturalizm ta’limotida asosiy masala bu tabiiy huquq azaldan mavjud bo’lganligi va insonga tabiat yoki tabiatdan tashqarida mavjud bo’lgan biror-bir ilohiy kuch tomonidan berilganligi, tabiiy berilgan huquq va unga amal qilish huquqi masalasidir.

Naturfalsafada esa, inson yoki jamiyat falsafasi emas, balki tabiat falsafasi ya’ni borliq falsafasi ontologiyadir.


Tabiiy huquq asosan axloqiy, diniy normalarda, urf-odatlarda va boshqa bir qancha ustqirma shakllarida namoyon bo'ladi.

Tabiiy huquqiy yonalishiga Aflatun asos solgan. Uning fikricha, insonlar qonunlarni faqat ochishadi, uni yaratishmaydi. Aflatun qonun ilohiy vujudga kelgan, insonning vazifasi uni ochishdir, deydi.

Arastu huquqni vujudga kelishiga qarab ikkitaga: tabiiy va shartli huquqqa bo'ladi.

O.Xyoffening fikricha, “tabiiy huquq” keng ma’noda inson amaliy faoliyatidagi majbutiyatlar majmuasidir. Buni davlat va huquq institutlari ma’nosida tushunish lozim.

Shunday qilib, tabiiy huquqning nimaga murojaat qilishi – ilohiy, dunyoviy tartbgami, inson mohiyatigami yoki aqlgami – bularning barchasi ikkinchi darajalidir.



Pozitiv huquq – inson aql-zakovati, uning tarixiy taraqqiyoti mahsulidir. Pozitiv huquq konsepsiysi ba’zi bir qarama-qarshi xususiyatlarni o’zida mujassam etishi mumkin. Masalan: qatlam, guruh, etnik, mulkchilikning turli xil ko’rinishlari bilan bog’liq va hokazo manfaatlarni pozitiv huquq o’z mazmunida mujassam etishi mumkin.

Pozitiv huquq ijtimoiy hayotda muhim rol o’ynaydi. Jamiyat osoyishtaligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Pozitiv huquq – bu kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi, uni baholovchi me’yoriy hujjatlar, shuningdek amaldagi qonunlar, rasman qabul qilingan yuridik normalar demakdir.

Huquqda mavjud bo'lgan uchta element: huquqning majburlov xarakteri, majburlov chegaralarini davlat belgilashi, majburlovnin amalga oshishini davlat tomonidan ta'minlanishi tabiiy huquqqa zid ravishda pozitiv huquqda mavjuddir.

Pozitiv huquqning birlamchi asosini tabiiy huquq tashkil etadi va uning falsafiy asosi hisoblanadi.

Tabiiy va pozitiv huquqni qiyoslaydigan bo'lsak, ular ko'p jihatlari bilan o'zaro farq qiladi. Tabiiy huquq va uning elementlari inson ongli mavjudot sifatida shakllana boshlagan davrlardan boshlab mavjud bo'lgan. Pozitiv huquq tabiiy huquqdan farqli ravishda ijtimoiy taraqqiyotning nisbatan yuqori bosqichida, insonning erki, haq-huquqini to'la anglab etishi, o'zligini anglashi, xususiy mulkchilik turli shakllarining paydobo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy sharoitda shakllandи va rivojlandи.

Pozitiv huquq kuyidagi xususiyatlariga ega:

- birinchidan, pozitiv huquq huquqiy normalarning qat'iy huquqiy hujjatlarda yozma ravishda qayd etilishidir. Demak aytish mumkinki, pozitiv huquq til va tafakkur rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan huquq falsafasining asosiy konsepsiyasidir.
- ikkinchidan, pozitiv huquq hokimiyat bilan bog'liq bo'ladi va uning bu xususiyati, pozitiv huquqni amaldagi me'yoriy, qadriyat regulyatoriga aylantiradi.
- uchinchidan, pozitiv huquqni dialektikaning asosiy kategoriyalardan biri bo'lgan umumiylilik kategoriyasi bilan bog'liq deyish mumkin. Pozitiv huquq huquqiy umumiylilik bo'lib, u barcha fuqarolarning xatti-harakatlarini tartibga soladi, ularni qonun yo'li bilan himoyalaydi.
- to'rtinchidan, pozitiv huquq davlat tomonidan himoyalanadi va qonunlarni ijtimoiy hayotga joriy etilishini ta'minlaydi.

Legitimlik deganda, odatda uchta xususiyat tushuniladi:

- 1) yangi huquqiy normalarni o'rnatalishida eski huquqiy normalarni o'rnatalishni hisobga olgan vorisiylik;
- 2) legitimlikning umuman qonunchilik ma'nosida tushunilishi;
- 3) legitimlikning umumiylar fikrlarning tan olinishi, urf-odatlar va hukmron ijtimoiy manfaatlarga muvofiqlik sifatida tushunilishi.

Shu nuqtai nazardan legitim hokimiyat deganda:

- birinchidan, oldingi hokimiyat tomonidan o'rnatalgan huquqqa muvofiq shakllangan hokimiyat;
- ikkinchidan, tabiiy yoki pozitiv huquqga muvofiq faoliyat qiladigan hokimiyat;
- uchinchidan, ijtimoiy, umumiylar fikrlar tomonidan tan olingan hokimiyat tushuniladi.

Yuqoridagi fikrlarni legitim huquqqa nisbatan qo'llash mumkin. Legitim huquq bu:

- 1) oldingi huquqiy normalarda ko'rsatilgan talablarga muvo-fiq qabul qilingan huquq;
- 2) ziddiyatsiz va muqarrar tizim sifatidagi huquq; 3) umumiylar bilan tan olingan huquqdir.